INKLYUZIV SHAROITIDA O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Isyanov R.G., TDPU dotsenti

Annotatsiya: maqolada ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni joriy etish va bo‘lajak pedagoglarni inklyuziv ta’limga tayyorlash texnologiyalari yoritilgan. Maxsus extiejli bolalar va o‘smirlarni inklyuziv ta’limining mazmun-moxiyati, vazifalari, tamoyillari, inklyuziv ta’limga bulgan extiejlar; ushbu ta’lim shaklini amalga oshirishda xalqaro tashkilotlarning vazifalari; inklyuziv ta’limning xuquqiy asoslari, resurs pedagog va uning vazifalari kayd etilgan.

Tayanch so‘zlar: inklyuziv ta’lim, integratsiyalashuv, inklyuziya, innovatsiya, IEP, nogironlik, kontseptsiya.

Аннотация: в статье рассказывается о внедрении инклюзивного образования в образовательных учреждениях и технологиях подготовки будущих учителей к инклюзивному образованию. Суть, цели, принципы инклюзивного образования для детей с особыми потребностями и выходы, которые имеют инклюзивное образование

Ключевые слова: инклюзивное образование, интеграция, инклюзия, инновация, ИЭП, инвалидность.

Abstract: the article outlines the techniques of introducing inclusive educational institutions and preparing future teachers for inclusive education. The essence, objectives and principles of inclusive education of special needs children and adolescents need inclusive education, the role of international organizations in implementing this form of education.

Keyword: inclusive education, integration, inclusion, innovation, IEP, disability, concept

Maxsus ehtiyojli bolalarni oliy ta’lim tizimida o‘qitish o‘qituvchilardan ikki karra mas’uliyat bilan ishlashni talab etadi. Inklyuziv ta’lim joriy qilingan muassasada albatta psixolog faoliyat yuritishi lozim. Psixologning faoliyati har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchilklarini bartaraf etish va korrektsiyalashga qaratiladi. Muassasa psixologi har bir bolani psixologik jihatdan tekshiradi, doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatdan o‘rganib boradi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash bo‘yicha ota-onalarga maslahatlar beradi, inklyuziv ta’lim muassasasining pedagogik hodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko‘rsatadi. O‘qituvchi faoliyatidan ko‘zlangan asosiy maqsad: oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan maxsus ta’limga muhtoj talabalar va ularning o‘qituvchilariga yordam ko‘rsatishdan iborat.

O‘qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: - har bir talabani qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlash va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam ravishda ular bilan uchrashish.

- talabalar bilan yakka tartibda ishlash, individual rejalardan kelib chiqqan holda ularni kuzatish, o‘quv dasturiga moslashishiga yordam berish, o‘qitish va baholash.

- pedagog-o‘qituvchilar talabalarning maxsus ehtiyojlari va qobiliyatlariga oid ma’lumotlarni berish.

- muntazam ravishda talabalarning erishayotgan muvaffaqiyatlarini muhokama qilish va baholash.

- pedagog xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash; - zarurat tug‘ilsa, talabalarni boshqa yordam ko‘rsatuvchi uyushmalarga taklif etish (masalan, seminarlarga, shifokorlarga).

- o‘kituvchilar hamda talabalar bilan individual ravishda olib boriladigan faoliyatlarni qayd etib borish.

- standart o‘quv reja talablariga javob bermaydigan vaziyatlarda har bir o‘quvchiga individual o‘quv reja tuzishga ko‘maklashish;

- mavjud barcha resurslar (o‘quv adabiyotlar, o‘qitish qurilmalari va boshqa asboblarni hujjatlashtirish va ular ro‘yxatini tuzish. Inklyuziv ta’lim sifatini oshirish uchun sharoit yaratishni hisobga olgan holda, shu jumladan, nogiron talabalar ta’lim sifatini yaxshilash uchun shartsharoitlar yaratish maqsadida, ularning ta’lim ehtiyojlari kerak: Inklyuziv ta’lim doirasida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda interaktiv usul va ta’lim shakllarini ishlab chiqildi:

- nogiron bolalarni ta’lim sohasiga jalb qilish nuqtai nazaridan o‘qitish metodologiyasi va metodikasini ishlab chiqish;

- uzluksiz inklyuziv (integral) ta’limni rivojlantirishning mavqei va rivojlanish tendensiyalariga yillik monitoring o‘tkazish;

- umumiy ta’lim nogiron bolalarni, shu jumladan ilmiy-tadqiqot olib borish uchun O‘zbekiston Respublikasi xalqaro tajribasini o‘rganish;

- ta’lim sohasiga integratsiyalashuv yoki inklyuzivlik sharoitida bolalarni tarbiyalash va o‘qitish metodikasini ishlab chiqish;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va interaktiv usullarini inklyuziv ta’lim doirasida amalga oshirish uchun uslubiy asoslarini yaratish;

- uslubiy dasturiy ta’minot, ta’lim standart talablarini ishlab chiqish, davlat ta’lim standartlari (talablari) va eksperimental tekshirish muvofiq adaptiv o‘zgaruvchan dasturlarini o‘rganib chiqish;

- umummilliy va qamrovchi tuzilmalarning inklyuziv (integral) ta’lim mazmunini ko‘rib chiqish (o‘quv dasturlari);

- talabalarning malakasi va qobiliyatlarini bilish uchun ta’lim standartlari (talablari) bo‘yicha bilimlarni va nazorat vazifalarini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. В.А.Ядов «Саморегуляция и прогнозирование социального поведения личности: диспозиционная концепция» второе расширенное издание. М. 2013

2. Т.К.Болеев. «Формирование готовности учителя к деятельности по профилактике аутоагрессии учащихся» автореферат. Тараз.2004

3. О.А.Ларионова «Профессионально-ориентированная иноязычная одготовка будущих специалистов нефтегазовой отрасли на основе интегративного подхода» автореферат. Казань 2017.

4. П.В.Середенко «Психолого-педагогическое исследование»: методология и методы. Южно-Сахалинск. 2010 5. П.В. Середенко «Подготовка учителя – исследователя в вузе»: УДК 378.018. 181-189 "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (SI) II/2020 ISSN 2181-063X